

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

CURRENT STATE OF THE SECURITIES MARKET IN UZBEKISTAN AND ITS ANALYSIS

¹Beknazarova Durdona
Farxod qizi

¹O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi.
G-mail: durdonabeknazarovao819@gmail.com

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu ilmiy maqolada mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorini amaldagi holati, yillar kesimida savdo bitimlari soni, qimmatli qog'ozlarning kapitallashuvi hamda qimmatli qog'ozlar savdosining hududlar kesimida tahlili, "Toshkent" RFBning barcha birja savdo maydonlarida o'rtacha kunlik, oylik hamda yillik bitimlar soni dinamikasi, bozorning milliy iqtisodiyotimiz rivojlanishi hamda, takomillashtirish yo'lida foydalanish mumkin bo'lgan moliyaviy instrumentlar tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini tahlil qilishda mavjud muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - This scientific article analyzes the current state of the securities market in our country, including the number of trade transactions by year, the capitalization of securities, and the regional distribution of securities trading. It also examines the dynamics of the average daily, monthly, and annual number of transactions across all trading platforms of the "Toshkent" Republican Stock Exchange. Additionally, the role of the market in the development of the national economy is assessed, along with an analysis of financial instruments that can be utilized for its further improvement. Furthermore, the study identifies existing issues in the analysis of the secondary securities market and develops scientific proposals and practical recommendations aimed at addressing these problems.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ qimmatli qog'oz, bitim, moliyaviy instrumentlar, emitent, fond birjasi, korporativ qimmatli qog'ozlar.
❖ security, transaction, financial instruments, issuer, stock exchange, corporate securities.

Kirish.

Jahon miqyosida kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar muomalasini takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, daromadi qat'iy belgilangan qarz qimmatli qog'ozlarning iqtisodiyotdagi aylanmasi, qimmatli qog'ozlar bozorini liberallashtirish hamda obligatsiyalar orqali yashil innovatsiyalar olib kirish, korporativ qarz

qimmatli qog'ozlar bozorida daromadlilik, ulushli qimmatli qog'ozlar bozorida fundamental tizimli tahlillar, korporativ qimmatli qog'ozlar bozorini samarali tartibga solish yuzasidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Iqtisodiy globallashtirish sharoitida korporativ qimmatli qog'ozlar bozorini integratsiyalash, fond birjalarida erkin muomaladagi aksiyalar ulushini oshirish, obligatsiyalar savdosida

ishonchlilikni ta'minlash, fond bozorlarida ma'lumotlar almashinuvini unumli tashkil etish bilan bog'liq masalalar hanuzgacha o'zining ilmiy ijobiy yechimini topmagan.

O'zbekistonda fond birjalarida korporativ qimmatli qog'ozlar, xususan, emitentlar aksiyalari savdosini samarali tashkil etish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Korporativ qimmatli qog'ozlar bilan savdolari amalga oshirish uchun yangi hisob-kitoblar (kliring) modelini joriy qilish, "Toshkent" RFB AJning qimmatli qog'ozlar bilan savdolaridagi hisob-kitoblarni (kliring) amalga oshirish va hisob-kitob kliring palatasi funksiyalarini Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga o'tkazish [1]", shuningdek, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiya"sida qayd etilganidek "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish [2]" kabi maqsadlar belgilangan bo'lib, bu, o'z navbatida, milliy kapital bozorlarida aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlari muomalasini yanada takomillashtirish va optimallashtirish bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning, jumladan, ulushli hamda qarz qimmatli qog'ozlar savdosini samarali tashkil qilish, fond birjalarida xorijiy investorlar faol ishtirokini ta'minlash, ulushli qimmatli qog'ozlar aylanmasida erkin muomalani oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif yoki tavsiyalar ishlab chiqish dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Olimlar ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori umumiy iqtisodiy barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatishini tadqiqot olib borganlar. Xususan, ularning nazarida iqtisodiy inqiroz davrida ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori o'zgaruvchanlik va likvidlik muammolariga duch kelishi natijasida, bu esa, o'z navbatida

kengroq iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi o'zlarining tadqiqotlarida ko'rsatib o'tganlar.

Buguni kunda xorijlik olimlarning qimmatli qog'ozlar bo'yicha bir nechta tadqiqotlar mavjud hisoblanadi. Xorijlik iqtisodchi olimlardan Morin O'Haraning tadqiqoti qimmatli qog'ozlar bozorining mikrotuzilmasiga modellariga bag'ishlangan bo'lib, uning fikricha, qimmatli qog'ozlar bozorida likvidlik, bozor savdosini erkinligi, bozorni tuzilishi va bozor mikrotuzilmasi eng muhim elementlari hisoblanadi. Uning nazarida, qimmatli qog'ozlar bozoridagi qimmatli qog'ozlarning savdo mexanizimini va qimmatli qog'ozlarni qiymatini shakllatirishda bozorining mikrotuzilmasi eng asosiy o'rin egallashini ta'kidlagan [3]. Iqtisodchi olimlardan bir hisoblangan F. Fama tadqiqotida qimmatli qog'ozlar bozorida axborot ma'lumotlari eng asosiy ko'rsatkich ekanligi ta'kidlagan. Uning fikricha, agar har bir daqiqadagi aksi-yalar narxlari kelajakdagi qiymatlar haqidagi barcha mavjud ma'lumotlarni o'z ichiga olsa, axborot ishonchiligi ta'minlash lozimligi tadqiqotida ko'rsatadi. Axborot ishonchiligi bozordagi aktivlarni narxi bilan bog'liq bo'lmasa, bozordagi aktivlarning kelajakdagi qiymatini yuqori bo'ladi va ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari ushbu axborotni sotib olishga harakat qiladilar. Buning natijasida, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoridagi aktivlar qiymatini bilan bog'liq axborotlar to'liq aks ettirmaguncha narxni oshib borishini tadqiqotida o'z aksini topgan [4].

T. Foucault, M. Pagano, A. Roellning tadqiqotiga ko'ra qimmatli qog'ozlarni likvidligi va narxlarni aniqlash orqali qimmatli qog'ozlar bozoridagi aktivlarning narxlarini aniqlashda muhim hisoblanishi ko'rsatib berganlar. Xususan, qimmatli qog'ozlar bozorida hamma ishtirokchilar ham bir vaqtning o'zida mavjud bo'lmasligi, hattoki cheklangan miqdordagi ishtirokchilar ham bozordagi qimmatli qog'ozlar haqida juda

xilma-xil ma'lumotlarga ega ekanligi natijasida ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoridagi aktivlarning bahosi shakllanishi asta-sekin bo'lishini aniqlaganlar. Shunday qilib, qimmatli qog'ozlarning haqiqiy tranzaksiya narxi uning asosiy qiymatiga ta'sir etmasligi mumkin, sababi qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq ma'lumotlar to'liq investorlar tomonidan baholanadi. Bundan tashqari, ular bozor mikrotuzilmasida ham tadqiqot olib borib, qimmatli qog'ozlar narxini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli nazariy tushunchalar va empirik tadqiqotlarga tayangan holda ikkilamchi qimmatli qog'ozlarni bozoridagi aktivlarni likvidlik va narxlarni aniqlash aktivlar bilan bog'liq narxga tegishli ma'lumotlar bozorga ommaviy e'lon orqali emas, balki savdo bosimi orqali aniqlanishi aktivlarning likvidligi past darajada bo'lishini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini aktivlari vaqt o'tishi bilan likvidlik o'zgaradi. Shuningdek, yirik savdolar narxlarni yuqoriga yoki pastga siljitadi va ushbu narxlar o'zgarishi orqaga qaytariladi. Buning natijasida, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar savdosining konsentratsiyasini amalga oshiriladi. O'z navbatida, treyderlar o'zlarining mo'ljallangan savdolarini bajonidil amalga oshiradilar, biroq boshqa ijtirokchilar esa ularni yashirishadi. Bu esa, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoridagi aktivlarni arbitraj narxlari vaqtinchalik o'zgarishlarga olib keladi [5].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh. Shoxazamiy doktorlik dissertatsiyasi ishida fond bozoridagi moliyaviy hisob-kitoblar kabi masalalarni o'rgangan bo'lsada, fond bozori aktivlarini baholash modelilar hisob-kitoblariga alohida to'xtalib o'tmagan. Olim qimmatli qog'ozlarning tahlilini takomillashtirish uchun aktivlarni baholash modellari nazariyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir, deb ta'kidlagan [6].

Qimmatli qog'ozlar va fond bozori borasida yetuk mahalliy iqtisodchi olimlardan yana biri I. Butikov ham doktorlik

dissertatsiyasi ishida O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishidagi muammolarini hal qilish yo'llarini ko'rsatib bergan [7].

Professor N.G'. Karimov o'zining doktorlik dissertatsiyasi ishida O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar bozoriga to'xtalib, investitsion faoliyatni qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirish masalalari yo'llarini ochib bergan [8].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Qimmatli qog'ozlar bozori milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishi, investitsiya jarayonlarini rivojlantirish va moliyaviy resurslarni taqsimlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda moliya bozorining barqarorligi va uning samarali tashkil etilishi iqtisodiy o'sish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qimmatli qog'ozlar muomalasi esa, bozordagi likvidlik, investorlarning ishonchi va kapitalning samarali oqimini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biridir.

Qimmatli qog'ozlar muomalasining mohiyati – bu moliyaviy instrumentlar (aksiyalar, obligatsiyalar, davlat qimmatli qog'ozlari va boshqalar)ni sotish va sotib olish jarayonlarini tizimli ravishda tashkil etishdan iborat. Ushbu jarayon moliya bozori infratuzilmasi, reglamentlari, vositachilar va ishtirokchilar o'rtasida o'zaro munosabatlar asosida shakllanadi. Muomalani tashkil etish orqali bozorning likvidligi oshadi, narxlarning oshkoraligi ta'minlanadi hamda moliyaviy risklar samarali boshqariladi.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori mustaqillikdan so'ng shakllana boshladi va iqtisodiy islohotlarning ajralmas qismi bo'lib qoldi. Qimmatli qog'ozlar bozorining

rivojlanishi, ayniqsa, davlat mulkini xususiylashtirish dasturi bilan bog'liq bo'lib, aksiyalar xususiy mulkka aylantirilgan davlat korxonalariga egalik huquqini ifodalovchi vosita sifatida ishlatilgan.


O'zbekiston Respublikasida fond birjasi sifatida o'z faoliyatini olib borayotgan "Toshkent" RFBsida aksiyalar savdolari bo'yicha ma'lumotlari quyidagi ko'rsatilib o'tilgan (1-rasm).



1-rasm. "Toshkent" RFBsida 2015-2024 yillar davomida savdo bitimlari soni va qiymati tahlili [9]

1-rasm ma'lumotlarida "Toshkent" RFBsida 2015-2024-yillar uchun birja kotirovkalari varag'iga kiritilgan emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi ko'rsatilib o'tilgan. Xususan, 2022-yilning yanvar holatiga aksiya emitentlari 135 tani va

bozor kapitallashuv darajasi 55,72 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning dekabr holatiga jami bozor kapitallashuvi 94,38 trln. so'm bo'lgan 107 ta emitentlar "Toshkent" RFBsida aksiyalar bo'yicha savdolarini kuzatishimiz mumkin.



2-rasm. "Toshkent" RFBsida korporativ qimmatli qog'ozlar kapitallashuvi oylik tahlili [9]

Korporativ qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanishi bevosita unga xorijiy va mahalliy investorlarni keng jalb etish hamda savdo jarayonlarini jaddallashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu jihatlarni inobatga olganda, quyida "Toshkent" RFBsida 2023-2024-yillarning 12 oyi uchun tuzilgan

bitimlar soni va hajmi ma'lumotlari berib o'tilgan. Jumladan, "Toshkent" RFBsida 2023-yil yanvar oyidagi bozor kapitallashuvi 55,72 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil joriy oyida 139,61 trln. so'mni yoki 250,55 foizga oshgandir. Qayd etish joziki, 2024-yilning dekabr oyida eng yuqori bozor

kapitallashuvi ya'ni 169,43 trln. so'mlik ko'rsatkich qayd etilgandir. Shuningdek, "Toshkent" RFBsida 2024-yil bo'yicha o'rtacha listingdan o'tkan aksiyadorlik jamiyatlari soni 107 tani tashkil etgandir.

Korporativ qimmatli qog'ozlar muomalasida O'zbekistondagi fond bozori tashkilotchisi "Toshkent" RFBsida qimmatli qog'ozlar savdosining oylik tahlili muhim ahamiyatga egadir (1-jadval).


1-jadval

"Toshkent" RFBsida korporativ qimmatli qog'ozlarning oylar bo'yicha tahlili [9]

Oylar	Bitimlar soni, dona			Bitimlar qiymati mlrd. so'm		
	2023-yil	2024-yil	Farqi	2023-yil	2024-yil	Farqi
Yanvar	15645	49492	33847	686,32	24,25	-662,07
Fevral	15871	45353	29482	945,91	86,3	-859,61
Mart	16485	38680	22195	91,49	113,23	21,74
Aprel	22292	36074	13782	130,21	20,99	-109,22
May	35835	38420	2585	191,31	59,68	-131,63
Iyun	28645	38152	9507	103,83	192,42	88,59
Iyul	36089	45371	9282	14,42	67,11	52,69
Avgust	40578	37687	-2891	175,32	16,38	-158,94
Sentabr	37543	29166	-8377	15,99	33,54	17,55
Oktabr	39439	28697	-10742	20,68	29,67	8,99
Noyabr	36218	34665	-1553	16,3	14,72	-1,58
Dekabr	87230	25095	-62135	320,98	213,15	-107,83
Jami	411 870	446852	34 982	2712,76	871,44	-1 841

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2023-yilning deyarli barcha oylarida 2024-yilga qaraganda bitimlar qiymati ancha yuqori shuningdek, bitimlar soni esa nisbatan ko'proqni tashkil qilmoqda. Masalan 2023-yilning yanvar oyini oladigan bo'lsak 2023-yilda jami 15645 dona bitimlar tuzilgan bo'lib bu jami yillik bitimlar sonining 4 foizini tashkil qilmoqda va 2024-yilda ushbu ko'rsatkich qariyb ikki yarim barobar oshib yanvar oyi uchun jami bitimlar soni

49645 donani ya'ni yillik bitimlar sonining 11 foizini tashkil qilmoqda. Biroq shuni ham aytib o'tish joizki, 2023-yil yanvar oyidagi bitimlar qiymati bilan 2024-yil yanvar oyidagi bitimlar qiymati o'rtasigadi tafovut ancha yuqori ya'ni 2024-yilda oldingi yilga qaraganda ancha qiymatlar past ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin. 2024-yilning I choragida 87 ta emitentning 1,84 mlrd. dona qimmatli qog'ozlari bilan jami 171,89 mlrd. so'mlik 133 640 ta bitim tuzildi.



3-rasm. 2024-yilning I choragida tuzilgan bitimlar soni va hajmi (mlrd. so'm) [9]

Yuqoridagi rasm ma'lumotlari asosida shuni aytishimiz mumkinki, bitimlar hajmining eng yuqori ko'rsatkichi 12-fevralga to'g'ri kelgan bo'lib, bu ko'rsatkich bir savdo kunida 60,38 mlrd. so'mdan oshgan; minimal ko'rsatkich mart oyining 20-sanasida qayd etilgan bo'lib, 79,45 mln so'mni tashkil qilgan. Amalga oshirilgan bitimlar soni bo'yicha eng katta ko'rsatkich 15-fevralga to'g'ri keladi,

o'shanda bir savdo kunida 3 266 ta bitim qayd etilgan. Eng kam ko'rsatkich 29-martda tuzilgan bo'lib 1 138 ta bitimni tashkil etgan. 2024-yilning I choragida "Toshkent" RFBning barcha birja savdo maydonlarida o'rtacha kunlik bitimlar soni 2 191 birlikni, o'rtacha kunlik bitimlar hajmi esa 2,82 mlrd. so'mni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

"Toshkent" RFBsida korporativ qimmatli qog'ozlar savdosining hududlar kesimida tahlili [9]

Hududlar	2023-yil I chorak Bitimlar soni	2024-yil I chorak Bitimlar soni	2023-yil I chorak Bitimlar hajmi, so'm	2024-yil I chorak Bitimlar hajmi, so'm
Andijon viloyati	3 956	10 926	1 184 612 172,15	1 064 382 202,00
Buxoro viloyati	1 236	3 895	206 933 104,77	6 143 294 156,53
Toshkent shahri	30 597	99 231	1 378 969 400 634,70	86 219 542 100,08
Jizzax viloyati	497	125	27 786 406,55	1 783 847,42
Qashqadaryo viloyati	34	1 544	3 823 494 786,20	3 860 036 082,26
Navoiy viloyati	1 516	3 650	1 366 614 474,31	7 300 736 082,26
Namangan viloyati	105	82	207 876 113,21	2 191 090,07
Qoraqalpog'iston Respublikasi	-	-	-	-
Samarqand viloyati	99	172	122 595 784,91	44 231 788,24
Sirdaryo viloyati	-	-	-	-
Toshkent viloyati	5 847	8 874	25 928 539 113,52	11 236 585 697,16
Farg'ona viloyati	4 099	4 979	307 497 480 354,15	55 409 772 943,81
Xorazm viloyati	17	162	4 382 873 224,04	603 677 398,16
Jami	48 001	133 640	1 723 718 206 168,51	171 886 233 448,24

Eng katta bitimlar hajmi Toshkent shahri va Farg'ona viloyati emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan. Ushbu hududlardagi emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi hisobot davrida umumiy birja aylanmasining 82,40 foizini (2023-yilning shu davrida - 97,84 foizni) tashkil etgan. Shu bilan birga, Toshkent shahar emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmining umumiy birja hajmidagi ulushi 50,16 foizni, 2023-yilning choragida esa - 80,00 foizni tashkil etgan.

Tuzilgan bitimlarning eng ko'p qismi Toshkent shahri va Andijon viloyati emitentlarining qimmatli qog'ozlariga to'g'ri keladi, ularning 2024 yilning I choragida

tuzilgan bitimlar umumiy sonidagi ulushi 82,00 foizni (2023-yil uchun 95,35 foiz) tashkil etadi. 2024-yilning I choragida jami 88 ta emitentning qimmatli qog'ozlari savdosi amalga oshirildi, shundan 39 tasi Toshkent shahriga to'g'ri keladi.

Xulosa va takliflar.

Qimmatli qog'ozlar bozori zamonaviy iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni jalb qilishning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. U nafaqat korxona va tashkilotlar uchun kapital manbai, balki iqtisodiyotdagi ortiqcha mablag'larni qayta taqsimlash, risklarni diversifikatsiya qilish hamda investitsion oqimlarni boshqarish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, qimmatli qog'ozlar bozorining samarali faoliyati bir qator ijobiy natijalarga olib keladi:

❖ Kapitalning eng istiqbolli sohalarga oqilona taqsimlanishi ta'minlanadi;

❖ Korporativ boshqaruv mexanizmlari takomillashadi, aksiyadorlarning manfaatlari himoya qilinadi;

❖ Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shiladi, moliyaviy tizimning shaffofligi oshadi;

❖ Investorlar ishonchi mustahkamlanadi va bu moliya oqimlarini yanada kengaytiradi.

Xalqaro standartlarga mos bo'lgan bozor infratuzilmasi investitsiyalarni jalb qilish va barqaror moliya muhitini yaratishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va bozor ishtirokchilari uchun onlayn platformalarning rivojlanishi bitimlarning tezkorligi va xavfsizligini oshiradi.

O'zbekiston sharoitida qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish nafaqat milliy iqtisodiyotning ichki barqarorligini mustahkamlaydi, balki mamlakatning xalqaro moliya tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyasiga

ham keng yo'l ochadi. Ushbu jarayonda quyidagi natijalarga erishish mumkin:

❖ Xalqaro raqobatbardoshlik oshadi va O'zbekiston moliya bozori global investorlarga yanada jozibador bo'ladi.

❖ Mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratiladi, bu esa uzoq muddatli investitsiyalar hajmini oshiradi.

❖ Davlat korxonalari orqali investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari kengayadi, bu esa milliy iqtisodiyotning modernizatsiyasi va diversifikatsiyasiga xizmat qiladi.

❖ Raqamli texnologiyalar asosidagi investitsion xizmatlarning kengayishi, xususan, elektron savdo tizimlari va "fintech" yechimlari orqali bozor samaradorligi oshadi.

❖ Moliyaviy savodxonlik va investorlar huquqlarini himoya qilish darajasi yuksaladi, bu esa bozorning barqaror va ishonchli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, qimmatli qog'ozlar bozorining takomillashuvi O'zbekiston iqtisodiyotida "uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik"ni shakllantirish va milliy kapital bozorini xalqaro standartlarga moslashtirishning muhim bosqichi sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrdagi "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-291-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.
3. O'Hara, Maureen, 1995, *Market Microstructure Theory*, Cambridge MA: Blackwell.
4. Fama E. F. *Efficient capital markets: A review of theory and empirical work* // *The journal of Finance*. - 1970. - T. 25. - №. 2. - P. 383-417.
5. Foucault, T., Pagano, M., Roell, A., 2013. *Market Liquidity Theory, Evidence, and Policy*. Oxford University Press, New York.
6. III. III. Шохазамий "Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане". Автореферат стр. 1-42, Т; 2011 г.
7. И. Бутиков "Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане" Автореферат Т,-2008, стр.1-41.
8. N.G'. Karimov "Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari" Avtoreferat, T., - 2007, 1-40 b.
9. "Toshkent" RFB rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi - <https://www.uzse.uz/>